

YASHIL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KORXONALAR INNOVATSION FAOLLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

Yuldasheva Nazokat Muzaffar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22701154>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 10-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 11-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda yashil transformatsiya sharoitida korxonalar innovatsion faolligini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy, texnologik, moliyaviy, institutsional va tashkiliy omillar tizimli ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalar innovatsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sir yo'nalishi va nisbiy ahamiyatini baholash hamda yashil innovatsiyalarni rag'batlantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil va ekonometrik modellash tirish usullaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar:

yashil transformatsiya, yashil iqtisodiyot, innovatsion faollik, yashil innovatsiyalar, korxonalar, innovatsion faoliyat, ekonometrik model, regressiya, investitsiyalar, raqamlashtirish, ekologik samaradorlik, innovatsion boshqaruv.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va texnologik yangilanish jarayonlarining jadallashuvi korxonalar faoliyatida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda. An'anaviy innovatsion rivojlanish modeli asosan yangi mahsulot, texnologiya va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishga yo'naltirilgan bo'lsa, yashil transformatsiya sharoitida innovatsiyaning mazmuni ekologik samaradorlik, energiya tejamkorligi, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarishning uglerod sig'imini pasaytirish kabi maqsadlar bilan kengaymoqda.

OECD va Eurostat tomonidan ishlab chiqilgan Oslo Manual 2018 innovatsiyani korxonaning oldingi mahsulot yoki jarayonlaridan sezilarli darajada farq qiluvchi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki jarayonning amaliyotga joriy etilishi sifatida talqin qiladi. Mazkur metodologiyada innovatsion faoliyat faqat ilmiy-tadqiqot xarajatlari bilan chegaralanmay, korxonaning innovatsiya yaratishga yo'naltirilgan moliyaviy, tashkiliy, tijorat va texnologik faoliyatlarini ham qamrab oladi.

Yashil transformatsiya sharoitida korxonalar innovatsion faolligini oshirish masalasi ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun dolzarbdir. Chunki korxonalarning innovatsion imkoniyatlari nafaqat ichki moliyaviy resurslar va texnologik salohiyatga, balki davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit, ekologik talablar, investitsiya imkoniyatlari, raqamlashtirish darajasi, inson kapitali va bozor raqobatiga ham bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha statistik va institutsional baza shakllanib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlarida korxonalarining innovatsion faoliyati, joriy etilgan innovatsiyalar, innovatsion mahsulotlar, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha ko'rsatkichlar shakllantiriladi.

2023-yilda O'zbekistonda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 5 026 tani tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich tarkibida ishlab chiqarish sanoati 1 188 ta korxona bilan muhim o'rin egallagan. Bu holat sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi rolini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2024-yilda mamlakatda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirgan tashkilotlar soni 264 tani, ushbu faoliyat bilan shug'ullangan xodimlar soni esa 37 164 kishini tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi xodimlar sonining 0,7 foizga oshgani ilmiy salohiyatning bosqichma-bosqich kengayayotganini ko'rsatadi.

Biroq innovatsion faollikning miqdoriy o'sishi uning yashil transformatsiya talablariga mosligi bilan bir xil emas. Shu sababli korxonalarining innovatsion faolligiga ta'sir qiluvchi omillarni aynan ekologik va texnologik transformatsiya kontekstida baholash alohida ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekistonning innovatsion faoliyatiga oid mavjud statistik ma'lumotlar innovatsion jarayonlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bir xil taqsimlanmaganligini ko'rsatadi. 2023-yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqargan 5 026 ta korxona va tashkilotning 1 188 tasi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelgan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida bunday korxonalar soni 1 629 tani tashkil etgan.

Mazkur natijalar innovatsion faollikni oshirish siyosatida tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatida yashil innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi yuqori bo'lishi mumkin. Chunki ushbu tarmoqlarda energiya sarfi, xomashyo iste'moli, suvdan foydalanish va chiqindilar hajmi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sezilarli darajada optimallashtirilishi mumkin.

2024-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajargan tashkilotlar sonining 264 tani tashkil etishi, ushbu faoliyatda 37 164 nafar xodimning ishtirok etishi mamlakatda innovatsion faoliyatning ilmiy bazasi mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot faoliyatining hududlar bo'yicha yuqori darajada konsentratsiyalashgani innovatsion salohiyatni hududlararo tenglashtirish masalasini dolzarb qiladi. Masalan, 2024-yilda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirgan xodimlarning 40,5 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelgan.

Yashil transformatsiyaning innovatsion faollikka ta'siri

Yashil transformatsiya korxonalar uchun bir vaqtning o'zida ham qo'shimcha xarajat, ham innovatsion rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Dastlab ekologik standartlarga moslashish korxonalardan yangi uskunalar, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik boshqaruv tizimlariga investitsiya qilishni talab etadi. Biroq uzoq muddatda ushbu investitsiyalar resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil transformatsiya sharoitida korxonalar innovatsion faolligini faqat innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar yoki joriy etilgan yangi texnologiyalar soni orqali baholash yetarli emas. Innovatsion faollik ko'p omilli jarayon bo'lib, uning shakllanishida moliyaviy resurslar, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot salohiyati, inson kapitali, raqamlashtirish, ekologik talablar va institutsional muhit o'zaro ta'sir qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th Edition. OECD Publishing, Paris/Eurostat, Luxembourg. <https://doi.org/10.1787/9789264304604-en>.
2. OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Concepts for measuring innovation. OECD Publishing.
3. OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Measuring business innovation activities. OECD Publishing.

4. OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Use of innovation data for statistical indicators and analysis. OECD Publishing.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). O‘zbekiston Respublikasida fan va innovatsiya: 2024-yil uchun statistik ma’lumotlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasida fan va innovatsiyalarning asosiy statistik ko‘rsatkichlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat statistik to‘plami.
8. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.